



**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**HADITH SCIENCE AND ITS EDUCATIONAL SIGNIFICANCE**

Students of Termiz State Pedagogical Institute

**Oqboyeva Gulnoza Rustamovna**

[gulnozaqboyeva@gmail.com](mailto:gulnozaqboyeva@gmail.com)

**Norboyeva Mohigul Abduraim Qizi**

[mohigulnorboyeva@345gmail.com](mailto:mohigulnorboyeva@345gmail.com)

**Abstract:** This topic discusses the coverage of educational issues in the most ancient written monuments and the educational significance of Hadith science. In ancient written sources, ideas that call for spiritual maturity, the acquisition of knowledge, and the formation of manners and ethics hold a primary place. Particularly in the historical monuments that are considered our people's spiritual heritage, the issues of educating the young generation and raising them to be patriotic, hardworking, and well-mannered individuals have gained great importance.

Hadith science is one of the main sources of Islamic teaching, encompassing the words, deeds, and recommendations of our Prophet Muhammad (PBUH). Hadiths call a person to high virtues such as honesty, patience, kindness, respect for parents, and the pursuit of knowledge. Therefore, Hadith science is of great importance not only from a religious perspective but also from pedagogical and educational viewpoints. Through this topic, the role of ancient written monuments and Hadiths in the upbringing of the young generation is extensively highlighted.

**Keywords:** Ancient written monuments, education, upbringing, spirituality, moral education, Hadith science, Islamic pedagogy, acquiring knowledge, manners and ethics, education of the young generation, the perfect man, enlightenment, educational significance.

**ENG QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARDA TA'LIM-TARBIYA  
MASALALARI. HADIS ILMI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI  
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI**



**OQBOYEVA GULNOZA RUSTAMOVNA,  
NORBOYEVA MOHIGUL ABDURAIM QIZI**

**Annotatsiya:** Ushbu mavzuda eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi hamda hadis ilmining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Qadimgi yozma manbalarda insonni ma'naviy yetuklikka, ilm olishga, odo-axloqni shakllantirishga chaqiruvchi g'oyalar asosiy o'rin egallagan. Ayniqsa, xalqimizning ma'naviy merosi hisoblangan tarixiy yodgorliklarda yosh avlodni tarbiyalash, ularni vatanparvar, mehnatsevar va odobli inson qilib voyaga yetkazish masalalari muhim ahamiyat kasb etgan.

Hadis ilmi esa islomiy ta'limotning asosiy manbalaridan biri bo'lib, u Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va tavsiyalarini o'z ichiga oladi. Hadislar insonni halollik, sabr, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, ilmga intilish kabi yuksak fazilatlarga chorlaydi. Shuning uchun ham hadis ilmi nafaqat diniy, balki pedagogik va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ushbu mavzu orqali qadimgi yozma yodgorliklar va hadislarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni keng yoritiladi.

**KALIT SO'Z** Eng qadimgi yozma yodgorliklar, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, hadis ilmi, islomiy pedagogika, ilm olish, odo-axloq, yosh avlod tarbiyasi, komil inson, ma'rifat, tarbiyaviy ahamiyat

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «O'rxun-Enasoy yodgorliklari», «Irq yozuvlari» («Ta'birnoma») kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan O'rxun-Enasoy bitiklarini «toshlarga bitilgan kitoblar», toshbitiklari deb ham ataydilar. Buning sababi ko'pgina yodgorliklarning qabr toshlariga o'yib yozilganidadir. Ularning eng yiriklari «To'nyuquq» hamda «Kul Tegin» yodgorliklaridir. O'rxun-Enasoy yodgorliklari





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

dastlab Yenisey havzasida, soʻngra Moʻgʻulistonning Oʻrxun daryosi boʻyida topilgan. Oʻziga xos xat (yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan. Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari dastlab, Oʻrxun, Selenga va Toʻli daryolari atrofidan Shimoliy Moʻgʻulistonda toshga bitilgan obidalar shaklida topilgan. Ushbu yozuvlarni 1893- yilda birinchi boʻlib daniyalik olim Vilgelm Tomson oʻqigan. V.Tomsondan soʻng olimlar N.M.Yadrinsev, V.V.Radlovlar mazkur manbalarni izlab topib, oʻqishga muvaffaq boʻldilar. VI asr oʻrtalarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga Turk xoqonligi nomi bilan kirgan. Eramizning 745 yiliga kelib esa Turk xoqonligi barham topgan. Turk xoqonligi davrlarda turkiy run (koʻk turk) xati keng qoʻllanilgan. Turklarning bu yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38-40 harflardan iborat edi. U tosh va yogʻochlarga oʻyib yozishga nihoyatda qulay edi. Qadimgi koʻkturk bitiklari (Kultegin va Bilga xoqon bitiklari) Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari Yettisuv, Fargʻona va Zarafshon vodiylaridan topilib, oʻrganilgan. Ular qabrtoshlar, sopol va metall buyumlar, yogʻoch hamda tanga pullarga bitilgan. Turkiy xalqlarning yozma maʼrifiy yodgorliklari oʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular “Oʻrxun-Enisey yodgorliklari”, “Irgʻ yozuvlari” (“Taʼbirnoma”) kabi manbalar boʻlib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-rumiy yozuvida bitilgan Oʻrxun-Enisey bitiklarini “toshlarga bitilgan kitoblar”, toshbitiklari deb ham ataydilar. Buning sababi koʻpgina yodgorliklarning qabr toshlariga oʻyib yozilganidadir. Ularning eng yiriklari “Toʻnyuquq” hamda “Kul Tegin” yodgorliklaridir. Oʻrxun-Enisey yodgorliklari dastlab Yenisey havzasida, soʻngra Moʻgʻulistonning Oʻrxun daryosi boʻyida topilgan. Oʻrxun-Enisey yodgorliklarining topilishi va oʻrganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. Shved zobidi Iogann Stellanberg, olim Messershmidt yodgorliklarni yevropa ilmi ahliga ilk marta taqdim





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

qilganlar. O'rxun-Enisey yodgorliklari S.E.Malov hamda I.V.Steblevalar tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda Oybek, O.SHarafuddinov, N.Mallaev, Aziz Qayumov va N.Rahmonovlar O'rxun-Enisey bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta'lim va tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar. O'ziga xos xat (yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklari dastlab, O'rxun, Selenga va To'li daryolari atrofidan SHimoliy Mo'g'ulistonda toshga bitilgan obidalar shaklida topildi. Ushbu yozuvlarni 1893 yilda birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o'qigan. V.Tomsondan so'ng olimlar – N.M.Yadrinsev, V.V.Radlovlar mazkur manbalarni izlab topib, o'qishga muvaffaq bo'ldilar. Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Xalqimiz o'z tarixiy - ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros qoldirgan. Xalq folklorida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan hamda tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining barcha jihatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, alla dastlabki hayot darsligi, ma'naviy boyliklarning bitmas - tunganmas hazinasidir. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko'pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - «Avesto», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari orqali ma'lumdir. Jasurlik, kuchlilik va mardlik - qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliyhimmatlilik va mehnatsevarlik kabilar ulug'langan. M.Qoshg'ariyning





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

«Devonu lug‘otit turk» asarida esa ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo‘stlik xush xulqlik mardlik va jasurlikni targ‘ib etuvchi, o‘z manfaatini ko‘zlagan molparast, baxil, ochko‘z, do‘stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she‘rlar ko‘p uchraydi. Bunday she‘rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shakllantirishda ta‘lim-tarbiyaga katta e‘tibor berganligini ko‘rsatadi.

Butun borliqni yaratib, shular ichidan insoniyatni o‘zining tavfiqi va hidoyatiga loyiq ko‘rgan Alloh taologa bitmas – tunganmas hamdu sanolar bo‘lsin. O‘z ummatlariga Robbisi amri ila hikmatni o‘rgatgan Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallamga mukammal batamom salovotu salomlar bo‘lsin. U kishining suhbatlarida bo‘lib, hadislarini va sunnatlarini Islom ummatlariga yetkazgan sahobalariga Allohning roziligi bo‘lsin. Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini va hadislarini to‘plash, o‘rganish va tadqiq etishda o‘z xizmatlarini ayamagan barcha imomlar, muhaddislar va ulamolarga Alloh taoloning behisob rahmati bo‘lsin.

Avvalo yurtimizda hadis ilmiga berilayotgan etiborni qayd etish lozim bo‘ladi. Zero Turli mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda yurtimizdan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlarimizning ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish, ulardagi ezgu g‘oya va ta‘limotlarni xalqimizga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Prezidentimiz 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida dolzarb mintaqaviy va global muammolar yechimi yuzasidan fikrlar bildirar ekan, jumladan, butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, uni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan tenglashtirmaslik zarurligi, Markaziy Osiyoning islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan ko‘plab yorqin namoyandalari, jumladan Imom Buxoriy boy merosini





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

asrab-avaylash va o'rganish, odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida tarbiyalash, yoshlarni zo'ravonlik g'oyasi "virusi"dan himoya qilishni eng muhim vazifalar sifatida ta'kidlagan edi.

Yurtimizda barcha sohalar qatori diniy-ma'rifiy yo'nalishda ham ulkan islohotlar, xususan, muqaddas islom dinini o'rganish, ajdodlar merosini qayta tiklash va ularni kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan buyuk ajdodlarga munosib vorislarni tayyorlash maqsadida yurtimizda diniy ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abdulloh ibn Muborak, Ibn Hibbon, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Barokotiy, Ibrohim ibn Ma'qil Nasafiy va Abd ibn Humayd Keshiylar tomonidan hadis maktablariga asos solingan bo'lib, ushbu ilmu ma'rifat va ziyo maskanlari hadis ilmi rivoji hamda dunyo ilm-fan taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan.

"Hadis ilmining sultoni" nomini olgan buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" kitobi musulmon dunyosida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, islom dini e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi.

Buyuk allomalarimiz asos solgan hadis ilmi an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish, ular qoldirgan boy ilmiy merosni o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida Hadis ilmi maktabi tashkil etildi.

Hadis ilmi maktabida Qur'on karim, fiqh, aqoid, tafsir, islom tarixi, arab tili va boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilimlar berilishi bilan bir qatorda, hadis va unga oid ilmlar o'rgatiladi.

Jumladan, "Hadis", "Mustalahul hadis" (Hadis istilohlari), "Hadis va sharh", "Ahkomul-hadis" (Hukm olinadigan hadislar sharhi), "Jarh va ta'dil" (Roviylarni





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

holatlari to'g'risidagi fan), "Taxrij va dirosatul asonid" (Hadis isnodlarini chiqarish va o'rganish), "Ilalul hadis" (Hadis illatlari va uni zaif qiluvchi sabablar) kabi mutaxassislik fanlari o'qitiladi.

Albatta mutaxassislik fanlari qadimgi Samarqand, Buxoro diniy ta'lim tizimi an'analariga muvofiq tarzda, yurtimizda ming yillar davomida o'qitilib kelingan mo'tabar darslik va o'quv kitoblari asosida o'rgatiladi.

Shuningdek, Hadis ilmi maktabi bitiruvchilari respublikadagi diniy ta'lim muassasalarida hadis va unga oid fanlardan dars berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy diniy ta'lim muassasasi hisoblangan Hadis ilmi maktabi istiqbolda musulmon mamlakatlaridagi Hadis maktablari bilan raqobatlasha oladigan ta'lim maskaniga aylanishiga, qadimdan hadis ilmi hamda muhaddislar markazi bo'lib kelgan Movarounnahrning avvalgi shon-shuhratini qayta tiklashi va rivojlantirishiga umid qilamiz.

Xabaringiz borki, Islom dinining asosiy manbalarining eng sharaflisi Qur'oni karim bo'lsa, undan keyingi darajada hadis va unga taalluqli ilmlar turadi. Payg'ambar alayhissalomning sunnatlari Qur'oni karimning mufassiri hamda uning maqsadlarini sharhlovchi bo'lganligi uchun Islom ulamolari hadisi shariflarni katta ahamiyat bilan o'rgandilar.

**Adabiyotlar:**

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. [Matn] /darslik/ Gulchehra Izbullayeva. – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni, 2022.

2. Умарова, М.Х. Теория и истории педагогики [Текст]: учебное пособие для направления бакалавриата область образования 5110900 - Педагогика и психология/М. Умарова. Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. – Т.: ИПТД имени Чулпана. 2018. – 372 с

3. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/31/NamDU-ARM-2912>  
Pedagogika\_nazariyasi\_va\_tarixi.pdf

